



XALQ DEPUTATLARI DANG‘ARA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 25-avgust

VII-13-85-11-155-K/25

Dang‘ara tumani

**Dang‘ara tumanida qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarining ijrosini ta’minlash
bo‘yicha 2025-yilning 1-yarim yilligi davri mobaynida amalga oshirilayotgan
ishlar ,“Ijro.gov.uz” tizimi orqali nazoratga olingan topshiriqlarning ijro holati
haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6166-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Mahalliy davlat hokimiyati organlarida qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlarining amalga oshirilishi bo‘yicha nazorat va hisobdorlikni tashkil etish” tartibida “Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning ijro holatini xalq deputatlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar sessiyalarida muhokama qilish hamda to‘liq bajarmagan, kechiktirib bajargan yoki umuman ijrosini ta’minlamagan rahbar va xodimlarga nisbatan intizomiy javobgarlik masalalarini ko‘rib chiqish” belgilab qo‘yilgan.

Tuman hokimligida “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo elektron tizimi orqali O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, farmoyishi , O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining va viloyat hokimining qaror, farmoyish va topshiriqlari hamda majlis bayonlarida berilgan topshiriqlarning ijro holati tuman hokimining birinchi o‘rinbosari huzurida haftaning har juma kuni, dushanba kuni tuman hokimi huzurida hisobotlar tinglanib, muhokama qilib borilmoqda.

Tuman hokimligida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarori talablariga muvofiq, “Ijro.gov.uz”ijro intizomi idoralararo elektron tizimi orqali O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlari hamda majlis bayonlarida berilgan topshiriqlari o‘z vaqtida ijroga qaratilib, to‘liq va sifatli bajarilishi qat’iy nazoratga olingan.

Tahlillar natijalari bo'yicha, ijro intizomini ta'minlashda yo'l qo'yilgan tizimli kamchiliklar, ularning sabablari aniqlanib, ularni bartaraf etish choralari ko'rib borilmoqda .

Tuman hokimligi Ijro intizomi nazorati tomonidan haftaning har juma kuni tuman hokimining 1-o'rinbosari, har dushanba kuni tuman hokimi huzurida, topshiriqlar ijro holati ma'lumotnoma va jadvallar tayyorlanib, tuman hokimining birinchi o'rinbosari tomonidan tanqidiy-tahliliy muhokamalar o'tkazib kelinmoqda.

Tahlillarga ko'ra, tuman hokimligiga shu kunga qadar "Ijro.gov.uz" tizimi orqali 2025-yilning birinchi yarim yili davomida jami 441 ta (43 ta qonun, 17 ta farmon, 68 ta qaror, 30 ta farmoyish, 93 ta nazorat reja, 18 ta yo'l xaritasi , 6 ta chora –tadbirlar rejasi va 166 ta yig'ilish bayonlari) ijro uchun yo'naltirilgan.

2025-yil 1-iyul holatiga "Ijro.gov.uz" elektron tizimi orqali kelib tushgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni va viloyat hokimining qaror, farmoyish va topshiriqlari hamda majlis bayonlarida berilgan topshiriqlarning to'liq ijrosini ta'minlanishi bo'yicha chora-tadbirlar belgilanib, muhokama yig'ilishlari o'tkazib kelinmoqda.

Tuman hokimining Moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosariga 737 ta, Qurilish, to'siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosariga 845 ta , Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar masalalari bo'yicha o'rinbosariga 893 ta , Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limiga 296 ta , Qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosariga 496 ta hamda tuman hokimining xotin-qizlar bo'yicha o'rinbosariga kelgan 201 ta topshiriqlar ijro etish uchun kelib tushgan .

O'tkazilgan tahlillar, muhokamalar va o'rganishlar natijalariga ko'ra, berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida va to'laqonli bajarimaslik holatlariga yo'l qo'ygandligi uchun 1 nafar xodim, tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari mutaxassisi (M.Alijonov)ga nisbatan "Hayfsan" intizomiy chora ko'rildi va qolgan bo'lim mutaxassislariga nisbatan intizomiy chora-ko'rilishi yuzasidan ogohlantirish berildi .

Joriy yilning birinchi yarim yilligida jami 1545 ta hujjatlar ijro uchun kelib tushgan bo'lib , shundan O'zbekiston mahallalar uyushmasi Dang'ara tumani bo'limiga ijroga chiqarilgan 127 tadan 4 tasini muddati o'tib kech bajarilgan, tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga 143 ta, Tuman IIB ga 39 ta , Tuman Adliya bo'limiga 11ta, Iqtisodiyot va moliya bo'limiga 141 ta, Suv yetkazib berish xizmatiga 43 tadan 1 tasini muddati kech bajarilgan, tuman qurilish va uy-joy kommunal xo'jalik bo'limiga 91 tadan 1 tasi muddati o'tib kech bajarilgan, Elektr tarmoqlari korxonasiga 62 ta, Favqulodda vaziyatlar tuman bo'limiga 51 ta ,tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limiga 149 tadan 3 tasi muddati o'tib kech bajarilgan, tuman Madaniyat bo'limiga 30 ta, Davlat soliq inspeksiyasiga 60 ta, tuman Veterinariya bo'limiga 9 ta, tuman Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik jamoat salomatligi bo'limiga 42 ta, Obodonlashtirish boshqarmasiga 42 ta shundan 1 tasini muddati o'tib kech bajarilgan, tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasiga 44 ta shundan 1 tasi muddati o'tib bajarilgan, Oila va xotin-

qizlar bo‘limiga 4 ta, Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limiga 93 ta shundan, 2 tasi muddati o‘tib kech bajarilgan, Sport maktabiga 37 ta shundan, 2 tasi muddati o‘tib kech bajarilgan, Dang‘ara tuman gaz ta‘minot bo‘limiga 7 ta, Axborot kutubxona markaziga 3 ta, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markaziga 61 ta shunda, 2 tasini muddati o‘tib kech bajarilgan, Dang‘ara tuman 3 –sonli politexnikumiga 7 ta, Dang‘ara tuman 1 –sonli politexnikumiga 6 ta, Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasiga Farg‘ona viloyati boshqarmasi tuman bo‘limiga 9 ta, Farg‘ona suv ta‘minoti AJ Dang‘ara tumani bo‘limiga 30 ta, tuman hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markaziga 3 ta, Tuman prokuraturasiga 5 ta, Qo‘riqlash bo‘limiga 8 ta Mudofaa ishlar bo‘limiga 6 ta, Xalq qabulxonasiga 3 ta, Pensiya jamg‘armasiga 4 ta hujjatlar ijro uchun tuman hokimligidan yuborilgan. Tumanda kelgusida yuqoridagi kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslik topshiriqlarni ijrosi yuzasidan ta’sirchan tizimini yaratish, jiddiy kamchiliklarga yo‘l qo‘yganligi, ijro intizomini susaytirib yuborgan xodimlarga nisbatan keskin choralar ko‘rilishi lozim bo‘ladi.

Tuman hokimining tegishli o‘rinbosarlari va tashkilot rahbarlariga “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo elektron tizimi orqali kelib tushgan va bugungi kunda ijro muddati kelmagan 501 ta topshiriqlarni belgilangan muddatlarda ijrosini ta’minlash yuzasidan tegishli ma’sul xodimlariga ko‘rsatmalar berib, bajarilishini nazorat qilish, topshiriqlarni ijrosi holatini tahlil qilish natijasida pirovard natijaga erishiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6166-sonli Farmonining ijrosini ta’minlash maqsadida, bu borada deputatlik va jamoatchilik nazoratini olib borish maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Hisobot davrida “**Ijro.gov.uz**” ijro intizomi idoralararo elektron tizimi orqali O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlari hamda majlis bayonlarida berilgan topshiriqlarning ijro holati yuzasidan tuman hokimligi Devonxona bo‘limi boshlig‘i R.Qosimovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosarlari I.Usmonov, J.Alidjonov, T.Salimov, Sh.Urinova, Sh.Shokirov va M.Azizovalar kompleksga kelib tushgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlari hamda majlis bayonlarida berilgan topshiriqlar ijro muddatidan kechikib bajarilganlik sabablarini (har bir topshiriq bo‘yicha) chuqur o‘rganib, tahlil qilib, kechikib bajarish sabablari va omillarini aniqlasin. Bunda, Adliya organlari bilan hamkorlikda kotibiyat mutaxassislari hamda kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilotlar rahbarlarining huquqiy ongi va shaxsiy mas’uliyatini yanada oshirish bo‘yicha o‘quv-seminarlari tashkil etib borish choralari ko‘riladi.

3. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari I.Usmonov, tuman hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi

(N.Umarov) bilan birgalikda, hisobot davrida **“Ijro.gov.uz”** ijro intizomi idoralararo elektron tizimi orqali kelib tushgan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarining ijrosini hisobot kuniga qadar ta'minlamagan mas'ullarga nisbatan amaldagi qonunchilik talablaridan kelib chiqib, intizomiy jazo choralarini ko'rsin.

4. Tuman hokimining tegishli o'rinbosarlari **“Ijro.gov.uz”** ijro intizomi idoralararo elektron orqali kelib tushgan va ijro muddati kelmagan topshiriqlarni belgilangan muddatlarda ijrosini ta'minlash choralarini ko'rsin. Bunda, har hafta yakuni bilan juma kuni tuman hokimining o'rinbosari huzurida kotibiyat mutaxassislari hamda kompleks tarkibiga kiruvchi tegishli tashkilotlarning mas'ul xodimlari ishtirokida topshiriqlarni ijrosi holatini tahlil qilib boriladi.

5. Tuman hokimligi Devonxona bo'limi (R.Qosimov): qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar mas'ul ijrochi tomonidan o'z vaqtida bajarilishi va natijasi bo'yicha belgilangan shakldagi ma'lumotlar **“Ijro.gov.uz”** tizimiga to'liq va haqqoniy kiritilishini nazoratga olsin; topshiriq ijrosi bo'yicha **“Ijro.gov.uz”** tizimiga kiritilgan ma'lumotlar Adliya vazirligi tomonidan e'tirozlar bilan ishlashga qaytarilganda, mas'ul ijrochi tomonidan kamchiliklar zudlik bilan bartaraf etilishi va tegishli ma'lumotlar tasdiqlash uchun **“Ijro.gov.uz”** tizimiga qaytadan kiritilishini nazoratga olsin.

6. Tuman hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi (N.Umarov), tuman hokimligi Ijro intizomi nazorati bo'limi (S.Mamatqulov) : har haftada **“Hokimlik soatlari”** va boshqa idoraviy kengaytirilgan yig'ilishlarda **“Ijro.gov.uz”** ijro intizomi idoralararo elektron tizimi orqali kelib tushgan topshiriqlarni o'z vaqtida, sifatli va tizimli bajarilishini tanqidiy muhokama qilib borsin; har yarim yillik yakuni bilan xalq deputatlari tuman Kengashiga qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijro holati bo'yicha, jumladan, ijro muddatidan kechikib bajarilganlik yoki umuman bajarilmaslik sabablarini (har bir topshiriq bo'yicha) chuqur tahlil qilib, uning sabab va omillari, shuningdek, ushbu kamchiliklarga yo'l qo'ygan rahbar va xodimlarga nisbatan intizomiy javobgarlik choralarini qo'llash bo'yicha takliflar aks etgan axborot kiritib borsin.

7. Ushbu qaror ijrosi nazorati xalq deputatlari tuman Kengashining **“Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo'yicha”** doimiy komissiyasi (B.Butabekov) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari I.Usmonovlar zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



TOJIXAKIMOV
SHUXRATJON
NURMUXAMMADOVICH